



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 404 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
<i>Niyozova Shahlo Abdusaitovna</i>	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
<i>Pulatova Dilfuza Baxramovna</i>	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
<i>Saidova Sumbuloy Otabayevna</i>	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
<i>Yunusova Dildora Hamrakulovna</i>	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
<i>Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi</i>	
Особенности иммунного статуса при аллергодерматозах у жителей ташкентской области.....	338
<i>Саипова Н. С., Абдуллаева Ф. Б.</i>	
Aqliy xaritalar va mnemotexnikani birlashtirib, bolalarning fikrlashini o'stirish.....	343
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxharova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
Математическое развитие по STEAM технологиям	349
<i>Садикова Д. Х.</i>	
Adaptive Trust-Aware Multi-Criteria Decision Method for Artificial Intelligence Systems: A Conceptual Framework and Mathematical Model	353
<i>Yuldashev Nodirbek Abdumannob o'g'li</i>	
Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalari rivojlanishiga ta'siri.....	360
<i>Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li</i>	
Yapon olimlari ayollarining kompetensiyaviy yondashuvini oliy ta'limda qo'llash istiqbollari	365
<i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna</i>	
Ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellektning o'rni	369
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Neuromuscular Dentistry's Place in Dental Practice	375
<i>Turayev Alimjan</i>	
Utilisation of Mechanotherapy in Dental and Maxillofacial Surgical Practices (Literature Analysis).....	380
<i>Marufova Farangiz Gayratovna</i>	
Axbrot istemoli madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari (talabalar misolida).....	387
<i>Ramazonov Jahongir Djalolovich</i>	
Mikromoliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda fuqarolik huquqiy munosabatlar.....	393
<i>Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi</i>	
Pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	398
<i>Gulmonova Guli Anvar qizi</i>	



PEDAGOGIK TA'LIMDA GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Gulmonova Guli Anvar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti maktabgacha
va boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlarning jadal rivojlanishi sharoitida o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, ta'lim jarayoniga faol jalb etish hamda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda pedagogik ta'lim muassasalarida gamifikatsiya elementlarini qo'llashga ta'sir etuvchi omillar, o'yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, ta'lim samaradorligini oshirish masalalari hamda gamifikatsiya yondashuvining tarkibiy komponentlari o'rganildi. Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kuzatish, suhbat va pedagogik monitoring metodlaridan foydalanildi. Natijalar bo'lajak o'qituvchilarda o'quv motivatsiyasini kuchaytirish, hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, tanqidiy va kreativ fikrlash hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishda gamifikatsiya texnologiyalarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: gamifikatsiya, pedagogik ta'lim, o'yin texnologiyalari, raqamli ta'lim, o'quv motivatsiyasi, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim texnologiyalari, gamifikatsiya elementlari, interaktiv ta'lim, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetentlik, ta'lim samaradorligi, kasbiy rivojlanish, zamonaviy pedagogika.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of using gamification technologies in the process of pedagogical education, their didactic potential, and their role in developing the professional competence of future teachers. In the context of the rapid development of digital educational technologies and innovative pedagogical approaches, increasing students' learning motivation, actively engaging them in the educational process, and developing independent and creative thinking skills have become among the priority tasks of modern education. The study examines the factors influencing the implementation of gamification elements in pedagogical education institutions, the didactic opportunities of game-based technologies, issues related to improving educational effectiveness, and the structural components of the gamification approach. The research employed theoretical analysis of scientific and pedagogical literature, comparative analysis, observation, interviews, and pedagogical monitoring methods. The findings indicate that gamification technologies play a significant role in enhancing learning motivation, promoting collaborative learning, improving problem-solving abilities, fostering critical and creative thinking, and developing digital skills among future teachers.

Key words: gamification, pedagogical education, game-based learning, digital education, learning motivation, pedagogical innovation, educational technologies, gamification elements, interactive learning, critical thinking, creative thinking, pedagogical competence, digital competence, educational effectiveness, professional development, modern pedagogy.



Аннотация: В статье анализируются теоретические основы использования технологий геймификации в процессе педагогического образования, их дидактический потенциал и роль в развитии профессиональной компетентности будущих педагогов. В условиях стремительного развития цифровых образовательных технологий и инновационных педагогических подходов повышение учебной мотивации обучающихся, их активное вовлечение в образовательный процесс, а также развитие навыков самостоятельного и творческого мышления становятся одними из приоритетных задач современного образования. В исследовании рассматриваются факторы, влияющие на внедрение элементов геймификации в учреждениях педагогического образования, дидактические возможности игровых технологий, вопросы повышения эффективности обучения, а также структурные компоненты геймификационного подхода. В ходе исследования использовались такие методы, как теоретический анализ научно-педагогической литературы, сравнительный анализ, наблюдение, интервьюирование и педагогический мониторинг. Результаты исследования показывают, что технологии геймификации играют значительную роль в повышении учебной мотивации, развитии навыков совместной работы, совершенствовании способности решать проблемные задачи, формировании критического и творческого мышления, а также развитии цифровых навыков у будущих педагогов.

Ключевые слова: геймификация, педагогическое образование, игровое обучение, цифровое образование, учебная мотивация, педагогические инновации, образовательные технологии, элементы геймификации, интерактивное обучение, критическое мышление, творческое мышление, педагогическая компетентность, цифровая компетентность, эффективность образования, профессиональное развитие, современная педагогика.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlantirishi hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning keng joriy etilishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, darslarga faol jalb etish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday innovatsion yondashuvlardan biri gamifikatsiya texnologiyalaridir. Gamifikatsiya – bu o'yin elementlari va mexanizmlarini o'yin bo'lmagan jarayonlarga tatbiq etish orqali ishtirokchilarning qiziqishi, faolligi va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyadir. Ballar, darajalar, reytinglar, mukofotlar, topshiriqlar va interaktiv vazifalar kabi o'yin elementlaridan foydalanish ta'lim jarayonini qiziqarli, samarali va o'quvchi markazli tashkil etishga imkon yaratadi.

Pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatida innovatsion metodlardan samarali foydalanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitining kengayib borayotgan bugungi sharoitda gamifikatsiya ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish va ta'lim jarayonining interaktivligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslarini yoritish, uning didaktik imkoniyatlari va afzalliklarini tahlil qilish hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika, ta'lim texnologiyalari, ta'lim psixologiyasi hamda raqamli ta'lim yo'nalishlarining kesishmasida shakllangan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni tadqiq etishda motivatsiya nazariyasi, konstruktivistik ta'lim, o'yin asosida o'qitish (Game-Based Learning) hamda raqamli pedagogika konsepsiyalari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Gamifikatsiyaning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar K. Kapp^[1], Z. Deterding^[2], J. McGonigal^[3], S. Nicholson^[4] va G. Zichermann^[5] kabi olimlarning ilmiy ishlari bilan bog'liq. Ularning tadqiqotlarida gamifikatsiya o'yin elementlari va mexanizmlarini ta'lim hamda boshqa noo'yin faoliyat turlariga tatbiq etish orqali ishtirokchilarning motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta'minlash va o'quv natijalarini yaxshilashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik texnologiya sifatida talqin etiladi. Raqamli ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar gamifikatsiyaning ta'lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini keng yoritadi.

Xususan, UNESCO hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan raqamli ta'lim konsepsiyalarida interaktiv ta'lim metodlari, o'yin elementlaridan foydalanish va talaba markazli yondashuv zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar gamifikatsiyaning ta'lim oluvchilarda ichki

motivatsiyani kuchaytirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda raqamli kompetentligini shakllantirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

Pedagogik ta'lim nazariyasining rivojlanishida J. Dewey^[6], L. Vygotskiy^[7], J. Piaget^[8] va M. Prenskiy^[9]ning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Ularning fikricha, samarali ta'lim jarayoni o'quvchining faol ishtiroki, amaliy faoliyati va qiziqishlariga tayangan holda tashkil etilishi lozim. Mazkur yondashuv gamifikatsiya texnologiyalarining pedagogik ta'limdagi nazariy asoslarini belgilashda muhim metodologik manba hisoblanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, gamifikatsiya texnologiyalarining samaradorligi motivatsiya, qiziqish va faol ishtirok bilan uzviy bog'liq. E. Deci va R. Ryan^[10] tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasida ichki motivatsiyani rivojlantirish shaxsning muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilgan. Shu sababli pedagogik ta'limda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham ta'limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish masalalari keng o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida gamifikatsiya elementlarini ta'lim jarayoniga joriy etish, o'quv motivatsiyasini oshirish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda gamifikatsiyani pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tizimli qo'llash, uning bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligiga ta'siri hamda samaradorligini baholash mezonlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois pedagogik ta'lim tizimida gamifikatsiya texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning maqsadi pedagogik ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uning bo'lajak o'qituvchilarning o'quv motivatsiyasi, kasbiy kompetentligi va ta'lim samaradorligiga ta'sirini baholashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot zamonaviy pedagogika, raqamli ta'lim, o'yin asosida o'qitish (Game-Based Learning) hamda gamifikatsiya nazariyalariga tayangan holda tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo'llanilib, nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa so'rovi, suhbat, test sinovlari, ekspert baholash hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak pedagoglarning gamifikatsiya texnologiyalari haqidagi bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi, interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalari hamda raqamli kompetentligining rivojlantirish darajasi o'rganildi. Shuningdek, gamifikatsiya elementlari (ball, reyting, daraja, badge, mukofot, topshiriqlar va musobaqalar)ning ta'lim jarayonidagi samaradorligi hamda talabalarning dars jarayonidagi faolligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot respondentlari sifatida pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 1–3-bosqich talabalari, jami 100 nafar bo'lajak pedagog, 25 nafar professor-o'qituvchi hamda 10 nafar ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar jalb etildi. Tadqiqot pedagogik ta'lim yo'nalishlarida tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda gamifikatsiya elementlari joriy etilgan darslar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning asosiy mezonlari quyidagilar asosida belgilandi:

- Motivatsion mezon:** talabalarning darsga qiziqishi; o'quv jarayonida faol ishtiroki; bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasi.
- Kognitiv mezon:** gamifikatsiya texnologiyalari bo'yicha nazariy bilimlar; o'quv topshiriqlarini bajarish sifati; muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati.
- Raqamli kompetentlik mezon:** Kahoot, Quizizz, Wordwall, Classcraft va boshqa raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmalari; zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash malakasi.
- Amaliy mezon:** gamifikatsiya elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilish; interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqish; ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion metodlardan foydalanish darajasi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida bo'lajak pedagoglarning gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik model ishlab chiqildi.

Ushbu model doirasida o'yin elementlariga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar, jamoaviy musobaqalar, raqamli platformalar yordamida test va viktorinalar, loyihaviy topshiriqlar hamda refleksiv baholash usullari amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, talabalar uchun gamifikatsiya asosida mustaqil ta'lim topshiriqlari va ijodiy vazifalar ishlab chiqildi. Olingan natijalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining bosh-



lang'ich va yakuniy natijalari qiyosiy tahlil qilindi hamda statistik baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish, darsdagi faolligini kuchaytirish, raqamli kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning samarali vositalaridan biri ekanligi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o'quv motivatsiyasi hamda darslardagi faolligi o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 24,0 foizida yuqori, 46,0 foizida o'rta va 30,0 foizida past darajadagi ko'rsatkichlar aniqlandi. Past darajadagi respondentlarda zamonaviy gamifikatsiya platformalaridan foydalanish, o'yin elementlarini dars jarayoniga qo'llash va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan metodlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Shakllantiruvchi bosqichda gamifikatsiya texnologiyalariga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar, raqamli viktorinalar, jamoaviy musobaqalar, ball va reyting tizimlari hamda loyihaviy topshiriqlar joriy etildi.

Yakuniy diagnostika natijalariga ko'ra, yuqori darajadagi ko'rsatkichga ega bo'lgan respondentlar ulushi 24,0 foizdan 48,0 foizga oshdi. Past darajadagi ko'rsatkich esa 30,0 foizdan 11,0 foizgacha kamaydi. O'rta darajadagi respondentlarning aksariyati yuqori darajaga o'tish tendensiyasini namoyon etdi. Motivatsion va kognitiv ko'rsatkichlar tahlili gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirganini, bilimlarni faol o'zlashtirishiga hamda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi. Ayniqsa, Kahoot, Quizizz, Wordwall kabi raqamli platformalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirdi.

Shuningdek, amaliy va refleksiv ko'rsatkichlarda ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot yakunida respondentlarning aksariyatida gamifikatsiya elementlarini dars ishlanmalariga integratsiya qilish, interaktiv topshiriqlar yaratish hamda o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanganligi aniqlandi. Bu esa gamifikatsiya texnologiyalari nafaqat o'quv motivatsiyasini oshirishi, balki bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ham xizmat qilishini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari pedagog va talabalarning hamkorlik faoliyati ham gamifikatsiya texnologiyalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. O'yin elementlari tizimli qo'llanilgan guruhlarda talabalar darslarda faolroq ishtirok etgani, topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajargani hamda jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlangani kuzatildi. Olingan natijalar K. Kapp, Z. Deterding, J. McGonigal hamda S. Nicholson tomonidan ilgari surilgan gamifikatsiya konsepsiyalari bilan mos keladi. Mazkur yondashuvlarda ham gamifikatsiya ta'lim oluvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, o'quv jarayonini qiziqarli tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot davomida pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning asosiy shart-sharoitlari sifatida quyidagilar aniqlandi: gamifikatsiya elementlarini dars jarayoniga maqsadli integratsiya qilish; interaktiv raqamli platformalardan tizimli foydalanish; talabalarning motivatsiyasini rag'batlantiruvchi ball, reyting va mukofot tizimini qo'llash; jamoaviy hamkorlik va sog'lom raqobat muhitini yaratish; bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash va raqamli kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarni tashkil etish. Shunday qilib, tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning o'quv motivatsiyasini oshirish, darslardagi faolligini kuchaytirish, kasbiy va raqamli kompetentligini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirishning samarali pedagogik vositalaridan biri ekanligini tasdiqladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Gamifikatsiya elementlarini dars jarayoniga maqsadli va tizimli joriy etish bo'lajak pedagoglarning o'quv motivatsiyasini oshirish, darsdagi faolligini kuchaytirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida gamifikatsiyaga asoslangan interaktiv metodlar va raqamli platformalardan foydalanish talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish, jamoada ishlash, muammolarni ijodiy hal etish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, o'yin elementlari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirib, ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Shu bilan birga, gamifikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llash pedagoglardan zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarni, darslarni puxta rejalashtirishni hamda o'yin elementlarini ta'lim maqsadlariga mos ravishda tanlashni talab etadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy va raqamli kompetentligini rivojlantirish,



ta'lim sifatini oshirish hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratishda samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Kelgusida gamifikatsiya texnologiyalarini turli fanlarni o'qitish metodikasi bilan integratsiyalash, ularning samaradorligini keng ko'lamli tajriba-sinov ishlari orqali o'rganish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglar uchun gamifikatsiya texnologiyalarini qo'llashga oid maxsus o'quv modullari va amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqish hamda o'quv jarayoniga joriy etish tavsiya etiladi.

Ta'lim jarayonida Kahoot, Quizizz, Wordwall, Classcraft kabi gamifikatsiya platformalaridan tizimli foydalanish orqali talabalarning o'quv motivatsiyasi va darsdagi faolligini oshirish maqsadga muvofiq. Professor-o'qituvchilarning gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar va mahorat darslarini muntazam tashkil etish lozim. Bo'lajak pedagoglarni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlash maqsadida loyiha asosida o'qitish, jamoaviy o'yinlar, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'yin elementlariga asoslangan amaliy topshiriqlar, musobaqalar va raqamli baholash tizimlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarur. Pedagogik ta'limda gamifikatsiya texnologiyalarining samaradorligini muntazam monitoring qilish, natijalarni tahlil etish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kapp K. M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. – San Francisco: Pfeiffer, 2012.
2. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining "Gamification". – Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 2011.
3. McGonigal J. Reality Is Broken: Why Games Make Us Better and How They Can Change the World. – New York: Penguin Press, 2011.
4. Nicholson S. A User-Centered Theoretical Framework for Meaningful Gamification. – Games+Learning+Society Conference Proceedings, 2015.
5. Zichermann G., Cunningham C. Gamification by Design. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2011.
6. Prensky M. Digital Game-Based Learning. – New York: McGraw-Hill, 2007.
7. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 2017.
8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
9. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.
10. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.